



## SPORT SAYTLARI MEDIAKONTENTI LEKSIKASI VA ETIMOLOGIYASI

**Hasanjon OLIMOV**

*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Bosma OAV va noshirlik ishi fakulteti, harbiy va sport jurnalistikasi kafedrası doktoranti*

**Annotatsiya:** *Internet olamida sport saytlarining paydo bo'lishi, eng avvalo, sport jurnalistlari ixtisoslashuvini tezlashtirdi. Va auditoriyaga sifat va son jihatidan mukammal kontent berilishini ta'minladi. Sifatli kontent berilishi uchun jurnalist o'zi foydalanadigan har bir so'zning ma'nosi, etimologiyasini bilishi lozim.*

**Kalit so'zlar:** *leksika, kommunikatsiya, etimologiya, sharh, website, sport jurnalistikasi, ixtisoslashgan saytlar.*

**Abstract.** *The emergence of sports websites in the Internet world accelerated the specialization of sports journalists. And ensured that the audience was provided with excellent content in terms of quality and quantity. In order to provide quality content, a journalist must know the meaning and etymology of each word he uses.*

**Keywords:** *lexic words, communication, etymology, review, website, sports journalism, specialized sites.*

Sport jurnalistikasi jurnalistikaning o'ziga xos maxsus predmetiga ega bo'lgan tarmog'idir. Sport jurnalistikasining maqsadi, vazifalari, funksiyalari har qaysi sport turida bir xil shaklga ega. Ya'ni futbolni sharhlayotgan jurnalist, samboni yoritayotgan sharhlovchining maqsadi o'sha sport turini targ'ib etish, vazifasi esa musobaqani yoritish va xabar berishdir. Biroq undagi atamalar va leksik so'zlar sport turiga qarab o'zgarishi mumkin. Bu kabi o'zgarishlarni biz ixtisoslashgan sport jurnalistlari faoliyat yuritayotgan internet saytlari misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Internet olamida sport saytlarining paydo bo'lishi eng avvalo sport jurnalistlari ixtisoslashuvini tezlashtirdi. Va auditoriyaga sifat va son jihatidan mukammal kontent berilishini ta'minladi. Bugunga kelib dunyoda sportning har bir sohasi va yo'nalishi bo'yicha alohida-alohida saytlar, bloglar mavjud. Masalan, basketbolni yorituvchi "nba.com", "eurohandball.com" saytlari bo'lib, ularda faoliyat yuritayotgan jurnalist, blogger, yozuvchi, sharhlovchi, qo'yingki har bir ijodkor ayni sohaning yetuk mutaxassisi yoki shunga intilayotgan izlanuvchisidir.

Mamlakamimizdagi sport saytlari esa, asosan, barcha sport turlari haqida ma'lumot beradi. Ya'ni aynan faqat bir sport turini yorituvchi saytni uchratmaysiz.



Binobarin sportga oid har bir soʻzning maʼnosini yaxshi tushunish bilan birga uning etimologiyasini ham anglash foydadan xoli emas. Avvalo, ushbu terminlarning maʼnosini bilib olsak.

**Etimologiya** (yun. etymon – haqiqat, logos – taʼlimot) soʻzning haqiqiy maʼnosini, soʻz va morfemalarning kelib chiqishini oʻrganuvchi tilshunoslik boʻlimidir [1, 47].

**Leksika** – tildagi barcha soʻzlar va iboralar yigʻindisi, bir soʻz bilan aytganda, tilning lugʻat tarkibidir [1, 495]. Leksika maʼlum qonun-qoidaga boʻysunuvchi izchil va murakkab tizimdan iborat. U doim oʻzgarib turadi. Bu narsa lugʻat tarkibida yangi soʻzlarning paydo boʻlishi, mavjud soʻzlardan ayrimlarining eskirib, isteʼmoldan chiqishi, leksik maʼnosini oʻzgartirib, yangi maʼno kasb etishi kabi jarayonlarda koʻrinadi. Jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy tuzumning oʻzgarishi bilan uzviy bogʻlangan holda lugʻat tarkibi boyib boradi.

XX asrdan buyon barcha xalqlar qatori oʻzbek xalqi leksikasi ham tezlik bilan oʻsib, taraqqiy etdi. Leksikologiya tarkibiga baynalmilal soʻzlar keng koʻlamda kirib keldi. Buning ustiga fan va turli sohalar terminologiyasi ham toʻxtovsiz oʻsib bormoqda.

Oʻzbek tili lugʻati tarkibiga sportga doir soʻzlar va atamalar ham kirib keldi. Bunday soʻzlarni oʻz navbatida oʻz va oʻzlashgan qatlamga ajratish mumkin [6]. Oʻz qatlam tarkibida umumturkiy soʻzlar va sportga oid oʻzbekcha soʻzlar kirsam, oʻzlashma qatlam tarkibida sport sohasida ishlatiladigan inglizcha, ruscha hamda baynalmilal soʻzlar bor. Misol uchun *basketbol*, *dzyudo*, *voleybol*, *gandbol* kabi soʻzlar xorijiy tillardan kirgan boʻlsa, futboldagi *burchak zarbasi*, *yon chiziq* hamda kurashdagi *halol*, *yonbosh* soʻzlari oʻz qatlamga tegishlidir.

Maʼlumot uchun aytish lozimki, zamon talabi jihatdan sportga oid soʻzlarni uch asosiy guruhga boʻlish mumkin [6]:

1) **zamonaviy qatlam** — eskilik va yangilik boʻyogiga ega boʻlmagan soʻzlar. Bunday soʻzlar sport kontenti tarkibining asosini tashkil qiladi. *Arbitr* (*futbol hakami*), *assist* (*golli uzatma muallifi*), *aut* (*toʻpning yon chiziqdan chiqib ketishi*), *autsayder* (*turnirda oxirgi yoki oxirgi oʻrinlardan birida joylashgan jamoa*) leksemalari bunga misoldir.

2) **eski qatlam** – hozirda ham isteʼmolda boʻlgan istorizmlar, va yoki umuman ishlatilmaydigan arxaizmlar bu qatlamga kiradi. Bu qatlamga Qadimgi Olimpiya

o'yinlarida ishlatilgan *pentatlon (beshkurash)*, *pankration (qo'l jangi va kurash)*, *ellanodik(hakam)* kabi so'zlarini kiritish mumkin.

3) **yangi qatlam** – yangi so'zlar deb ham yuritiladi. Bunday so'zlar sport sohasi vakillari uchun ham endi ma'lum bo'lgan va yangilik bo'yog'ini yo'qotmagan so'zlardir. Masalan, *boksing dey* — ingliz futbolidagi Rojdestvo (Yangi yil) dan keyingi davr, u qisqa vaqt va ko'p sonli (chempionat va kubok) o'yinlar, *boll-boy* — o'yin paytida, to'p maydondan chiqib ketganda, uni olib kelib beradigan shaxs. Bunday so'zlar neologizm deb ham ataladi.

Sport saytlarida neologizmlar o'ziga xos milliy-madaniy xususiyatga egadir. Til taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida neologizm bo'lgan so'z keyinroq yangilik «bo'yog'i»ni yo'qotib, barcha uchun tushunarli zamonaviy leksik qatlam birligiga aylanishi mumkin. Masalan, *futbol, arbitr, sambo, dzyudo, regbi, chim ustida xokkey, qilichbozlik, akrobatika, stol tennisi, mototsikl sporti, velosiped sporti, parashyut sporti, ot sporti, kamondan otish, figurali uchish, badiiy gimnastika* kabi so'zlar dastlabki paytlarda neologizm bo'lgan, hozir esa ularning birortasida yangilik bo'yog'i mavjud emas.

Demak, bu so'zlar allaqachon neologizmlik holatidan chiqib, qo'llanishi odat tusiga kirgan kundalik leksemalarga aylangan, deb aytish mumkin.

Qolaversa, sport terminologiyasida so'zlar turli tillardan olingan bo'lib, har xil ma'nolarni anglatishi ma'lum. Bu esa so'zning kelib chiqishi, ya'ni etimologiyasini bilishni taqozo etadi. Masalan, **“taekvondo”** koreyscha so'zdan olingan bo'lib, **“tae”** – oyoq, **“kvon”** – qo'l, **“do”** – yo'l, ya'ni oyoq va qo'llarning harakat yo'li – sport kurashi ma'nosini bildiradi. **Basketbol** – inglizcha «basket» – savat, «ball» – to'p mazmuniga, «shaxmat», *shohmot fors tilidan olingan «shohmot»* – shoh «mot bo'ldi» deganidir. **Dzyudo** – yaponcha «dzyu» – yumshoq, «do» – yo'l – sport yakka kurashi bo'lsa, **volleybol** – inglizcha «volley ball», «volley» – urmoq va «ball» – koptokni ifodalaydi, ya'ni jamoa bo'lib o'ynaladigan sport o'yinidir [1].

Boks inglizcha «box» – mushtlash, zarb berish, gandbol inglizcha «hand» – qo'l, «ball» – to'p, qo'l to'pi – sport o'yini, bodibilding, kulturizm – «Body building» – tana tuzilishi (fransuzcha «culturisme», «physical culture» – gavda madaniyati) sport turi, fristayl, inglizcha «free» – erkin, «style» – usul – tog' chang'i sport turidir [1].

Sport yangiliklarida ko'p marotaba ishlatiladigan so'zlarni etimologik jihatdan tahlil qilib chiqsak, foydadan xoli emas.



“Olamsport.com” saytida e’lon qilingan yangiliklardan misol keltirsak [9].

*“Yulian Drakslerning Qatar chempionatiga transferi amalga oshmay qoldi.*

*Draksler «PSJ»dagi jamoadoshi Marko Verratti bilan birga Qatarning «Al-Ahli» klubiga ko‘chib o‘tishi xabar qilingandi. Ammo shanba kungi muzokarlarda germaniyalik futbolchi Doha klubiga o‘tishdan bosh tortgan. “Sky Sport” xabariga ko‘ra, u «PSJ»da qolishga qaror qilgan.*

Ushbu matndagi sportga aloqador so‘zlarning tahliliga o‘tsak:

*Chempionat-* asl o‘zagi champion so‘zidan bo‘lib, g‘olibni aniqlash uchun o‘tkaziladigan musobaqa ma’nosidadir [1, 475]. Champion so‘zi esa asli jangchi, kurashchi degan ma’noni bildiradi.

*Transfer-* bu atama asli ingliz tilidan kirib kelgan [1, 229]. Sportda bir o‘yinchining boshqa jamoaga ma’lum mablag‘ evaziga ko‘chib o‘tishiga aytiladi. *Transfer* so‘zining ma’nosi o‘zbek tilida ko‘chib o‘tmoq, o‘tkazib qo‘ymoq degan ma’noni bildiradi.

*Jamoadosh-* bu so‘z arab tilidan o‘zlashgan bo‘lib “jamaatun” ya’ni to‘plam, uyushma ma’nolarida keladi. Bir jamoada faoliyat olib boradigan sportchilar jamoadosh hisoblanadi/

*Klub* –so‘zining asl ma’nosi *bir joyga yig‘ish, to‘plash* ma’nosini bildiradi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida ma’naviy-ma’rifiy muassasa deb ta’rif berilgan [1, 384]. Ammo bu o‘rinda futbol jamoasi nazarda tutilgan.

*Muzokara* – bu so‘z ham arab tilidan muzakaratun shaklida bo‘lib asl o‘zagi zakara fe’lidir va gapirib o‘tdi degan ma’nodadir. Sportda esa futbolchi yoki boshqa sport vakili biror masala muhokamasida o‘z fikrini va positsiyasini bildirishidir.

*Futbolchi-* futbol o‘yini bilan shug‘ullanuvchi shaxsdir.

*Mavsum* – bu so‘z ham arabiy so‘z bo‘lib, mavsim shaklida ham qo‘llaniladi. Uning o‘zagi vasama bo‘lib yilning ma’lum bir kunlari ma’nosini bildiradi. Sportda esa yilning ma’lum, rejalashtirilgan bir qismida faoliyat olib borishdir.

*Ijara* – arabcha so‘z bo‘lib, ma’lum bir haq evaziga biror bir shaxs yoki predmetni ishlatishga yoki foydalanishga aytiladi. Sportda ham o‘yinchidan ma’lum vaqt foydalanish uchun ijaraga olishadi. Muddat tugagandan so‘ng sportchi asosiy klubiga qaytadi.

Sharhlar davomida o‘yinchilarga nisbatan “texnikasi yuqori hujumchi”, “texnikasi bor sportchi” kabi atamalar ishlatilib kelinadi.





Texnika – yunoncha «tehnus» soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, oʻzbek tilida «sanʼat» maʼnosini anglatadi [1, 142]. Sport amaliyotida va koʻpgina sportchilarga nisbatan ishlatiladigan «texnika» atamasi harakat malakalari, oʻyin usullarining tuzilish shakli, mazmuni va ijro etish tartibini ifodalaydi. Muayyan ijro (oʻyin usuli – zarba, toʻp uzatish, toʻp kiritish va h.k.) texnikasi maxsus mashqlar yordamida qanchalik koʻp va uzoq vaqt takomillashtirilsa, u shunchalik goʻzal, chiroyli, yengil, samarali, aniq va «sanʼat» darajasida ijro etiladi. Shu sabab sport yangiliklarida “*Real Madrid*” klubi oʻyinchilari Marseloning toʻpni toʻxtatish texnikasi kuchli, Toni Krossning esa toʻpni aniq uzatish boʻyicha eng yaxshi natijaga ega”, - deb yozishadi.

Xulosa qilib aytganda, shiddat bilan rivojlanib borayotgan globallashtirish davrida baʼzan har qanday axborotni shunchaki yetkazib qoʻyishning oʻzi yetarli boʻlmay qoladi. Uning qay uslubda berilishi katta ahamiyatga ega. Xalqqa yetkazilayotgan har bir soʻz, jumla taʼsirchan boʻlmogʻi, mazmuni kontentga mos kelishi darkor. Bu esa bevosita ommaviy axborot vositalari tiliga qiziqishning ortishiga sabab boʻladi

### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻzbek tilining izohli lugʼati. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.: Davlat, 2020.
2. Yoʻldoshev M. Badiiy matnning lisoniy taxlili. – T.: 2008.
3. Karimov S.A., Joʻraev T.T. Oʻzbek tili uslubiyati va nutq madaniyati (bibliografik koʻrsatkich).- Samarqand: SamDU, 2001.
4. B. Mengliev, Oʻ.Xoliyorov. Oʻzbek tilidan universal qoʻllanma. – T.: Akadernashr, 2016.
5. [www.google.com](http://www.google.com)
6. [www.tribuna.uz](http://www.tribuna.uz)
7. Olamsport.com

